

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Янгиқўрғон туман халқ таълим
бўлими mudiri:



А.Қаюмов

«10» июнь 2022 й

БУЮРТМАЧИ:

« Янгиқўрғон туман халқ таълими бўлими »

Янгиқўрғон туман халқ таълими бўлимига қарашли “Ибрат” МФЙ
жойлашган 12 – сонли умумий ўрта таълим мактаб биносини сирот залини
муқкамал таъмирлаш ишлари

ТАНЛОВ ХУЖЖАТЛАРИ

Янгиқўрғон шаҳри -2022 йил

Танлов ҳужжатларининг мазмуни:

I. Танлов иштирокчилари учун йўриқнома

ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИСИ УЧУН ЙЎРИҚНОМА

Ушбу йўриқнома 2021 йил 22 апрелдаги № 684-сонли Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунига асосан ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2018 йил 26 майда № 3016-сон билан руйхатдан ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Лойиҳа Бошқаруви Миллий Агентлигининг “Харид тартиб-тамойилларини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисидаги” тартиби асосида ишлаб чиқилди.

1. ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ ҚИЙМАТИ

1.1. Янгикўрган туман ҳалқ таълими бўлимига карашли “Ибрат” МФЙ жойлашган 12 – сонли умумий ўрта таълим мактаб биносини спрот зални муқкамал таъмирлани ишлари бўйича малакали мутахассисларга эга бўлган ташкилотлар жалб қилинади.

1.2. Танловнинг бошлагич қиймати – **820595786 (Саккиз юз йигирма миллион беш юз тўқсон беш минг етти юз саксон олти) сўм.** Ушбу қийматдан ортиқ қийматдаги таклифлар қабул қилинмайди ва қўриб чиқилмайди.

Ушбу танлов якунлари бўйича ғолиб чиққан ташкилот билан шартнома тузилади.

1.3. Ишларни бажариш муддати шартнома имзоланган кундан бошлаб 5 кун.

1.4. Ишларни бошлаш муддати – буюртма берилган кундан бошлаб ҳисобланади.

2. ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ

2.1. “Янгикўрган туман ҳалқ таълими бўлими” (бундан кейин-“Буюртмачи” деб аталади) -танлов ташкилотчиси ҳисобланади.

“Буюртмачи” манзили: Почта манзили 161200, Ўзбекистон Республикаси Наманган вилояти Янгикўрган тумани Янгикўрган шаҳари Наманган кўча 13 уй

2.2. Танлов “Буюртмачи” томонидан танловлар ўтказиш бўйича тузилган харид комиссияси томонидан ўтказилади

2.3. Танлов “Янгикўрган туман ҳалқ таълими бўлими” биносида “Буюртмачи” томонидан тузилган харид комиссияси орқали қонунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.

3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ

3.1 Танловда мулкчилик шаклидан қатъий назар шу мазмунда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган, тажрибага эга малакали хизмат кўрсатиш

бўйича белгиланган юридик мақомга эга бўлган ташкилотлар ўзининг низоми ва лицензия асосида тақдим этган ҳолда иштирок этиши мумкин.

3.2. Танловда иштирок этиши учун талабгорларга қуйидаги малакавий талаблар қўйилади:

- Танлов савдо иштирокчиси тўғрисидаги умумий ахборот (Устав ва гувоҳномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг шахсий ИНН си ва паспорт нусхалари).
- Танловда қатнашиш кунда Давлат солиқ инспекциясидан солиқдан қарздорлиги йўқлиги тўғрисида маълумотнома.
- Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охириги икки йиллик иш тажрибаси.
- Банк кафилиги бўлсин.
- Танлов иштирокчисининг молиявий кўрсаткичлари.
- Танлов иштирокчисининг ишлари бажаришда фойдаланадиган машина ва механизмлари рўйхати.
- Объектнинг жамланма жадвали, объектда бажариладиган иш ҳажмлари рўйхати, объект қурилишининг шартномавий нархини белгилашда ишлатилган асосий нарх шакллантирувчи компонентларнинг нархлари.

3.3. Агар танлов предмети бўлган ишлар (хизматлар)ни бажариш билан боғлиқ фаолият қонунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофиқ тегишли лицензияга эга бўлган талабгорларга руҳсат этилади.

3.4. Қуйидаги талабгорларга танлов жараёнларида иштирок этишга руҳсат берилмайди:

- қайта ташкил этилиш (ажратилиши, қўшилиш), тугатиш ёки банкротлик арафасида турганлар; мол-мулки мусодара қилинганлар, ҳамда муассислик келишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-ҳуқуқий ёки бир бирига молиявий қарамлиги мавжудлар.

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Янгиқўргон туман халқ таълими
бўлими мудири:



(Signature) **А.Қаюмов**
 «10» июнь 2022 й

ТЕХНИК ТОПШИРИҚ

№	Асосий маълумотлар	Бажарувчи
1	Қабул қилувчи ташкилот	Янгиқўргон туман халқ таълими бўлими (12 мактаб)
2	Буюртмачи	Янгиқўргон туман халқ таълими бўлими
3	Буюртма учун асос	Нуксон далолатнома, Лойиха сметва ва экспертиза ҳулосаси
4	Объектнинг жойлашган манзили	Янгиқўргон тумани "Ибрат" МФЙ жойлашган 12 – сонли умумий ўрта таълим мактаб
5	Қатнашувчи учун талаблар	<ul style="list-style-type: none"> - Танлов савдо иштирокчиси тўғрисидаги умумий ахборот (Устав ва гувоҳномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг шахсий ИНН си ва Паспорт нусхалари). -Танловда катнашиш кунда Давлат солиқ инспекциясидан, солиқлардан қарздорлиги йўқлиги тўғрисида маълумотнома. - Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охириги икки йилликда қилинган иш таърибаси. - Банк кафилиги бўлсин. - Танлов иштирокчисининг молнявий кўрсаткичлари. - Танлов иштирокчисининг ишлари бажаришда фойдаланадиган машина ва механизмлари рўйхати. - Объектнинг жамланма жадвали, объектда бажариладиган иш хажмлари рўйхати, объект қурилишининг шартномавий нархини белгилашда ишлатилган асосий нарх шакллантирувчи компонентларнинг нархлари.
6	Товар (иш хизмат маҳсулот) номи ва миқдори	"Ибрат" МФЙ жойлашган 12 – сонли умумий ўрта таълим мактаб биносини спрот зални муккамал таъмирлаш
7	Иш тури	Жорий таъмирлаш
8	Хизматларни бажариш муддати	Шартномаларни имзолаган кундан бошлаб 20 кун муддатда
9	Техника хавфсизлиги бўйича талаблар	Хизматларни бажариш жараёнида ёнгин, саноат ва техника хавфсизлиги қоидаларига тўла риоя қилиниши шарт.
10	Молнялаштириш манбаи	Янгиқўргон туман халқ таълими бўлими бюджет маблағлари ҳисобидан.

Давлат харидлари ва шартнома
гуруҳи раҳбари:

Бош ҳисобчи:

Иқтисодчи:

(Three signatures in blue ink)

А.Абдуллаев

У.Исломов

У.Абдувалиев



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:10-06-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 46512

Obyekt nomi «Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 12-sonli umumta'lim maktabi sportzalini mukammal ta'mirlash»

Buyurtmachi - Yangiqo'rg'on tumani Xalq ta'limi bo'limi

Bosh loyihachi - "KELAJAK-S" xususiy korxonasi

Litsenziya AL-000800 9.06.2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Byudjet

Bosh pudratchi - Tanlov asosida

Qurilish turi Mukammal ta'mirlash

Murojaat raqami: № 44539

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Xalq deputatlari Yangiqo'rg'on tumani kengashining 18.04.2022 yildagi VI-37-47-6-90-K/22-sonli qarori.
- 1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va Yangiqo'rg'on tumani Qurilish bo'limi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.
- 1.3. Namangan viloyat Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi tomonidan 2022 yilda bajarilgan vizual o'rganib chiqish bo'yicha texnik xulosa xulosa.
- 1.4. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 2022 yildagi 26-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. "Ishchi loyiha"ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Sportzal. Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, elektr yoritish, yong'in signalizatsiya va videokuzatuv qismlari.
- Yordamchi bino va inshootlar (issiqlik punkti, 25 m³ hajmli oqavasuv o'radi).
- Bosh reja va tashqi issiqlik muhandislik tarmoqlari.
- Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Mukammal ta'mirlanayotgan 12-sonli umumta'lim maktabi Yangiqo'rg'on tumani "Ibrat" MFYda joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo'yicha - 8 ball. Tashqi havo harorati - 14°s. Me'yoriy qor yuklamasi - 0,50 kPa va shamol yuklamasi - 0,38 kPa. Yerni tuzilish reliefi - tekis.

3.2. Bosh reja.

12-sonli umumta'lim maktabning mavjud hududida joylashgan: mavjud bino va inshootlar, mukammal ta'mirlanayotgan sportzal hamda loyihalananayotgan issiqlik punkti, 25 m³ hajmli oqavasuv o'rasi. Hudud obodonlashtirilgan va ko'kalamzorlashtirilgan.

3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Sportzal (mukammal ta'mirlash).

Sportzal - 1 qavatli, yerto'lasiz, temir-beton panellardan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-J" va "1-3" o'qlar bo'yicha 23,4mx12,0m o'lchamda, poldan balkagacha balandligi - 5,6 m. Texnik xulosaga ko'ra sportzal binoning umumiy xolati qoniqarli. Mukammal ta'mirlash jarayonida tomyopma balkalarni almashtirish va mustahkamlash, ayrim devorlarni mustahkamlash, eshik va derazalarni almashtirish, pollarni yangilash, isitish va shamollatish, elektr yoritish, yong'in signalizatsiya, videokuzatuv tizimlari ta'mirlash va qurish, shuningdek loyihaga asosan boshqa ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

2. Issiqlik punkti (yangi qurilish).

Issiqlik punkti - metall konstruksiyalardan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-2" o'qlar bo'yicha 1,8mx2,2m o'lchamda, balandligi - 2,5m.

3. 25 m³ hajmli oqavasuv o'rasi (yangi qurilish).

Loyihalananayotgan o'ra - yaxlit quyma temir-betondan (beton markasi V20), to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devor o'qlari bo'ylab 3,0mx6,4m o'lchamdan iborat, o'ra chuqurligi - 1,65 metr.

3.4. Mukammal ta'mirlash davomiyligi.

Mukammal ta'mirlash davomiyligi - 2 oy.

4. Loyihalananayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Ichimlik suvi, elektr ta'minoti - maktabning mavjud tarmog'idan nazarda tutilgan.

4.2. Issiqlik ta'minoti - Issiqlik manbai loyihalananayotgan issiqlik punkti hisoblanadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja, fasad chizməsi Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi va Yangiqo'rg'on tumani Qurilish bo'limi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. Ishchi loyihada barcha qirqimlarda balandlik satxlari - ko'rsatildi.

6.1.2. "Ok-2"+"Ok-5" ishchi chizmalari - berildi.

6.1.3. Sport zal binosida OV bo'limiga asosan ventilyatsiya yechimlari - ishlandi.

6.1.4. Texnik xulosaga asosan "A-B/2-4" kordinata o'qi oralig'idagi tomyopma temir-beton balkalarni almashtirish - ko'zda tutildi.

6.1.5. Texnik xulosaga asosan mustahkamlash ishlari - ko'zda tutildi.

6.1. Ekspertiza natijalariga ko'ra buyurtmachining boshqa xarajatsiz va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan 988686,397 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 168090,611 ming so'mga kamaytirilib, **820595,786 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	685987,479	ming so'm
Asbob-uskunalar:	27574,074	ming so'm
QQS:	107034,233	ming so'm
- Bundan tashqari		
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	41000,000	ming so'm

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 12-sonli umumta'lim maktabi sportzalini mukammal ta'mirlash" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich